

Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi o'tkazilishi, sanasi, vaqti, o'tkaziladigan joyi, kun tartibi to'g'risidagi ma'lumotlar

<https://uzkimiyosanoat.uz/oz/corporate/calendar>

O'zbekiston Respublikasining "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonuni 58-moddasiga asosan barcha oddiy aksiyalar bitta aksiyadorga tegishli bo'lgan jamiyatda aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi o'tkazilmaydi. Qonun va jamiyatning ustavi bilan aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi vakolatiga kiritilgan masalalar bo'yicha qarorlar bunday aksiyador tomonidan yakka tartibda qabul qilinadi hamda yozma shaklda rasmiylashtirilishi kerak. Bunda 7-bobning aksiyadorlar umumiy yig'ilishiga tayyorgarlik ko'rish, uni chaqirish va o'tkazish tartibini hamda muddatlarini belgilovchi qoidalari qo'llanilmaydi.

"O'zbekimiyosanoat" aksiyadorlik jamiyati tomonidan muomalaga chiqarilgan 789 819 770 dona egasini nomi yozilgan oddiy hujjatsiz aksiya paketlarining 100 foizi jamiyat yagona aksiyadori - O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga tegishli bo'lganligi sababli yuqorida qayd etilgan Qonun talablariga va jamiyat Ustaviga muvofiq jamiyatda aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi o'tkazilmaydi. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi vakolatiga kiritilgan masalalar bo'yicha qarorlar Jamiyat yagona aksiyadori tomonidan yakka tartibda qabul qilindi hamda yozma shaklda rasmiylashtirildi.